



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

Bahodirova Ruxshona Baxodir qizi,

Quchqorova Zabuvra Ne'mat qizi

SamDU Kattaqo 'rg'on filiali 1-bosqich talabalari

O'zbekistonda inkluziv ta'limi rivojlantirish va jamiyatdagi o'rni

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'lim tizimi ya'ni inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi va bu ta'lim tizimi mактабгача та'lим ташкilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi, O'zbekistonda rivojlantirish va jamiyatdagi o'rni haqida so'z boradi. Maktabgacha ta'lim dasturi bolalardan taqqoslay olish, tahlil eta olish, umumlashtira olish, ma'lum bir xulosa chiqara olish jarayonlarini talab etadi. Har qanday imkoniyati cheklangan bolalarni nuqsonini ilk yoshdan o'z vaqtida aniqlab mutaxassislarga murojaat qilinsa va maktabga tayyorgarlik ishi o'z vaqtida olib borilsa albatta ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Ya'ni inklyuziv ta'larning samarasini yuqori darajada bo'ladi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, rivojlanish, takomillashuv, harakat, bolalar, nogironlar, maxsus ta'lim, umumiyligini ta'lim, inklyuziv ta'lim, ijtimoiy ajratish, maktab, umumiyligini ta'lim muassasalari.

Key words: education, upbringing, development, improvement, movement, children, people with disabilities, special education, general education, inclusive education, social segregation, school, general education institutions.

Ключевые слова: образование, воспитание, развитие, оздоровление, движение, дети, инвалиды, специальное образование, общее образование, инклюзивное образование, социальная сегрегация, школа, общеобразовательные учреждения.



Kirish. UNICEF (Birlashgan millatlar tashkilotining bolalar jamg‘armasi) inklyuziv ta’limni O‘zbekiston ta’lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug‘ullanadi. Inklyuziv ta’lim vazifasi bolalarning qobiliyatlari va holatidan qat’i nazar, ularning barchasiga sifatli ta’lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan bir qatorda, inklyuzivlik tamoyili imkoniyati cheklangan bolalarda har tomonlama ijobiy, ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo‘lishlari uchun, oilada yashashlari va o‘z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari kerakligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta’lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday maktabda ta’lim olishi, agarda o‘zlashtirishda qiynalayotgan bo‘lsa, o‘qish va yozishga o‘rganish uchun maxsus yordamga ega bo‘lishi, darslarga qatnamay qo‘ygan bolaga esa mакtabga qaytish uchun tegishli yordam ko‘rsatilishini kafolatlaydi.

Inklyuziv ta’lim tizimida jamiyatda imkoniyati cheklangan bolalar va o‘smirlarga nisbatan do‘stona va mehrmuhabbatli munosabatni shakllantirish, oilalardan ajramagan holda yashash huquqini ro‘yobga chiqarish, jamiyatning va oilaning faol ishtirokida nogiron va sog‘lom bolalarning ehtiyojlarini qondirish, ijtimoiy hayotga erta moslashtirish maqsad va vazifalarning hal etilishi talab etadi.



Vazirlar Mahkamasi tomonidan 12.10.2021 yildagi «Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida»gi [638](#)-son qaror qabul qilindi.

Hujjat 13.10.2020 yildagi «Alovida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi [PQ-4860](#)-son qarorga muvofiq ishlab chiqilgan.

Xulosa va takliflar, inklyuziv ta’lim jamiyatda sog‘lom bolalar ongida o‘zlariga o‘xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qilishga, tengdoshlariga g‘amxo‘rlik hissi uyg‘otishga, ularni qo‘llab-quvvatlash, yordam berishga intilish –insonparvarlik hissi tarbiyalashga, bolalarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o‘zaro hurmatni tarbiyalashga, yordamga muhtoj insonlarga e’tibosizlik qilmaydigan shaxs bo‘lib yetishishi uchun juda katta ahamiyatga ega.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida qarori PQ-4312 08.05.2019

D.S.Qaxarova “Inklyuziv ta’lim texnologiyasi” o‘quv va metodik qo‘llanma 2014-yil Jurayev SH.S., Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat ma Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 P.

Выготский Л.С. Дефект и сверхкомпенсация. // «Проблема дефектологии». М., 1996. –C. 42.